




СБОРНИК ТЕЗИСОВ

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ:
«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
РАЗВИТИЯ ИНФЕКТОЛОГИИ,
МЕДИЦИНСКОЙ ПАРАЗИТОЛОГИИ,
ЭПИДЕМИОЛОГИИ И
МИКРОБИОЛОГИИ»**

4-5 апреля
2023 года
Ургенч



Министерство здравоохранения
Республики Узбекистан

Ташкентская медицинская академия

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

Международная общественная организация
«Евро-Азиатское общество по инфекционным болезням»

Министерство здравоохранения
Республики Каракалпакстан

Федеральное бюджетное учреждение науки
Московский научно-исследовательский институт
эпидемиологии и микробиологии имени Г.Н. Габричевского

**Сборник тезисов международной
научно-практической конференции
«Современные тенденции развития
инфектологии, медицинской паразитологии,
эпидемиологии и микробиологии»**

4-5 апреля 2023 г.

Город Ургенч



O`TKIR VA O`TKIR OSTI BRUTSELLYOZDA QO`LLANAYOTGAN DAVO CHORALARI SAMARADORLIGINI PZR REAL-TIME USULI YORDAMIDA O`RGANISH

Tadjieva N.U.^{1,2}, Zaylobidinov B.Z.¹, Azimov Sh.R.², Anvarov J.A.¹, Asatullayeva M.A.¹

¹Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitir kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston

²Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Dolzarbligi. Brutsellyoz – bakterial agentli tabiiy o`choqlarga ega, asosan tayanch xarakter tizimi, nerv va jinsiy sistemalarning zararlanishi bilan kechadigan, retsidivlanishga moyil zoonoz kasallik. Asosan chorvachilik bilan shug`ullanuvchi qatlamda keng tarqalgan. 170 dan ortiq turli darajada rivojlangan davlatlarda ro`yxatdan o`tadi. Bakteriya hujayra ichida uzoq muddat yashay olishi antibakterial preparatlarning yetib borishi qiyinligi kasallikni global muammolardan biriga aylantiradi. Qonda bakteriyaning mavjudligini davolash davomida tekshirish orqali davolash choralarining samaradorligi nazorat qilinib turiladi. Bundan tashqari qonda bakteriya miqdoriga kasallik kechishining o`zaro bog`liqligi o`rganiladi.

Maqsad. Bemorlar qonida davogacha va statsionar davodan keyin *Brucella* spp. ni aniqlash orqali davolash samaradorligini o`rganish.

Material va metodlar. Ushbu prospektiv tadqiqotda 2020-2022-yillarda RIEMYPKIATM klinikasida o`tkir va o`tkir osti brutsellyoz tashxisi bilan statsionar davolangan 18 yoshdan 70 yoshgacha bo`lgan 61 bemorlar tekshirildi (o`rtacha yosh 37±14). Ma`lumotlar murojaat vaqtida ko`rik, reportaj usulida so`rovnoma, prospektiv bemor nazorati, umumklinik laborator tekshiruvlar, instrumental tekshiruv, serologik taxlillar, bemorlardan kelganida va statsionar davodan keyingi olingan qonlarining PZR-RealTime tekshiruv orqali yg`ildi. Xar bir bemordan tadqiqotda ishtirok etish uchun rozilik olindi. Tadqiqotga bolalar jalb etilmadi. Tashhisni qo`yishda N.I. Rogoza klinik tasnifini K.J. Jalilov (1988) tomonidan to`ldirilgan tasnifidan foydalanildi. PZR-RealTime reaksiyasi davogacha va davodan keyin qo`yildi. Qon namunalari DNKni ajratib olish uchun C-8896 ekstraksiya to`plami ishlatildi. *Brucella* spp. uchun DNK nishoni sifatida IS711 segmenti tanlandi va deteksiya uchun V-5470 to`plami qo`llanildi. BIO-RAD apparatida amplifikatsiya jarayoni o`tqazildi.

Natijalar. Bemorlar RIEMYPKIATM 4-bo`limida davolanishdi. Davolash sxemasi O`zbekiston Respublikasi SSV ning 2018-yilgi qo`llanmasi asosida olib borildi. Statsionar davolash 21-kunni tashkil etdi, bemorlar yana 21 kun davomida ambulator sharoitda yashash joylarida etiotrop (antebakterial) davoni davom ettirdilar. Bemorlarning shikoyatlari xisobga olinib simptomatik davolash choralarini ko`rdi.

61 bemordan davolashgacha olingan qon namunalari *Brucella* spp. DNK siga tekshirilganda 88.5% namunalarda DNK aniqlandi xamda bemorlarda antibakterial davolash boshlandi. 11.5% qon namunalari genom segmentlari topilmadi. Statsionar davolangan bemorlarning 31% qismida DNK mavjudligi aniqlandi.

Xulosa. O`tkir va o`tkir osti brutsellyoz bilan kasallangan bemorlar statsionar davolanganidan keyin 42 (69%) tasining qonida DNK aniqlanmadi qolgan 19 (31%) ta qon namunasida DNK topildi. O`z. Res. SSV tomonidan tasdiqlangan amaliy qo`llanma asosida statsionar davolash olgan bemorlarning 69% qismida klinik xamda laborator sog`yishga erishildi.